

# Buxoro viloyatida 2019 yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2610,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 117,9 foizni tashkil etdi.**

**Korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan foizda**




**Korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari hajmi**

**Yirik korxonalar- 345,5 mlrd. so'm**

**Kichik korxonalar va mik.-1343,9 mlrd. so'm**

**Norasmiy sektor- 920,6 mlrd. so'm**

**Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda**



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2610,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 345,5 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1343,9 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 920,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,5 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar


tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 127,6 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik korxonalar va tashkilotlarning ulushi 0,9 foizga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 3,9 foizga oshgan, norasmiy sektor ulushi 2,9 foizga kamaygan.

## Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


**2019 yil yanvar-iyul**

*(jamiga nisbatan foizda)*



**2018 yil yanvar-iyul**

*(jamiga nisbatan foizda)*



Qurilish ishlarining umumiy hajmidan 63,6 foizi yoki 1660,0 mlrd. so‘m - yangi qurilish, rekonstruksiya, kentgaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o‘tgan yilning mos davrida 63,7 foiz yoki 1340,6 mlrd. so‘m), 36,4 foizi yoki 950,0 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davrida 36,3 foizi yoki 762,5 mlrd. so‘m) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'ektlarini (maktablar, kollejlari, sport hamda sog‘liqni saqlash ob'ektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bino va ishootlarni qurilishiga 1804,0 mlrd. so‘m, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 69,1 foizni, fuqarolik ob'ektlarini qurilishiga 419,3 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 16,1 foizni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 386,7 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 14,8 foizni tashkil qildi.

*mlrd. so‘mda*


	Amaldagi narxlarda	Umumiy hajmga nisbatan foizda	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:		
			Bino va ishootlarni qurilishi	Fuqarolik ob'ektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	2610,0	100,0	1804,0	419,3	386,7
Davlat mulki	160,8	6,2	1,3	137,1	22,4
Nodavlat mulki	2449,2	93,8	1802,7	282,2	364,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 foiz punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 foiz punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 foiz punktga kamaydi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, foizda



### 2019 yilning yanvar-iyul oylarida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 2449,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 116,3 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,8 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foiz punktga kamaygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 160,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 149,3 foizni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 6,2 foizni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foiz punktga koʻpaygan.

	<b>2019 yil yanvar-iyul, mlrd, soʻm</b>	<b>Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati, foizda</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda</b>
<b>Jami mulkchilik shakli boʻyicha</b>	2610,0	117,9	100,0
Davlat mulki	160,9	149,3	6,2
Nodavlat mulki	2449,1	116,3	93,8


### **2019 yil yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari**

Viloyatda qurilish ishlari hajmida eng yuqori oʻrinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 587,1 mlrd. soʻm, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 129,5 foizni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Gʻijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 270,6 mlrd. soʻmni, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 152,8 foizni tashkil qildi. Kogon tumanida esa 242,8 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 foizni tashkil qildi.

*mlrd, so'm*

	<b>2019 yil yanvar-iyul, mlrd, so'm</b>	<b>2018 yil yanvar-iyul, mlrd, so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, foizda</b>
<b>Jami</b>	<b>2610,0</b>	<b>2103,1</b>	<b>117,9</b>
Buxoro sh	587,1	430,7	129,5
<b>Kogon sh</b>	<b>56,8</b>	<b>62,9</b>	<b>86,0</b>
Olot	206,1	170,0	115,1
<b>Buxoro</b>	<b>230,4</b>	<b>160,3</b>	<b>136,6</b>
Vobkent	80,3	66,7	114,4
<b>G'ijduvon</b>	<b>270,6</b>	<b>167,9</b>	<b>152,8</b>
Kogon	242,8	210,6	109,6
<b>Qorako'l</b>	<b>106,7</b>	<b>92,6</b>	<b>109,3</b>
Qorovulbozor	150,7	179,6	80,0
<b>Peshko'</b>	<b>141,7</b>	<b>121,5</b>	<b>110,6</b>
Romitan	212,3	165,8	121,7
<b>Jondor</b>	<b>128,6</b>	<b>121,5</b>	<b>100,5</b>
Shofirkon	195,9	153,0	121,7

## 2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida qurilish ishlarining ulushi, foizda



Qurilish ishlari umumiy hajmida 22,5 foiz ulush bilan Buxoro shahri yetakchilikni egalladi. Keyingi pog'onani 10,4 foiz ulush bilan G'ijduvon tumani egalladi. Uchinchi o'rinni 9,3 foiz ulush bilan Kogon tumani egalladi.

### Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

**T. Adizov**

Aloqa telefoni:

**223-81-99, 0(371)230-83-10**